

ANZUR PIYOZI (ALLIUM SUVOROWII) O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA XALQ TABOBATIDAGI AXAMIYATI

Do'saliyeva Safura Shavkatjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrası o'qituvchisi,
dusaliyevasafura@gmail.com, +998943978946*

Xo'jayev Vaxobjon Umarovich

*Qo'qon davlat pedagogika instituti kimyo
kafedrası professori, kimyo fanlari doktori*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amaryllidaceae oilasiga kiruvchi tur o'simliklarni tarqalishi, biologik tasnifi shuningdek Anzur piyozi (Allium suvorowii Regel L.) - dorivor o'simligini zaxiralari, xalq tabobatidagi qo'llanish sohalari ya'ni asosan gipovitaminoz va shamollash kasalliklariga qarshi qo'llanilishi kabi xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *o'simlik, anzur piyoz, barg, soyabon.*

Аннотация: *В данной статье описаны распространение, биологическая классификация растений, принадлежащих к семейству Amaryllidaceae, а также характеристика лука анзурского (Allium suvorowii Regel L.) запасы лекарственного растения, области применения в народной медицине, т.е. в основном против болезней органов гиповитаминоз и простуда.*

Ключевые слова: *растение, лук анзурской, листья, зонтик.*

Annotation: *This article describes the distribution, biological classification of plants belonging to the Amaryllidaceae family, as well as the characteristics of the Anzur onion (Allium suvorowii Regel L.) - stocks of a medicinal plant, areas of application in folk medicine, i.e. mainly against hypovitaminosis and colds.*

Key words: *plant, anzur onion, leaves, umbrella.*

Amaryllidaceae o'simliklar oilasi 900 dan ortiq turni birlashtiradi. Ular Avstraliyadan tashqari hamma mintaqalarda tarqalgan, ko'p yillik ildiz poyali va piyoz boshli, maxsus hid tarqatuvchi o'simliklardir. Barglari oddiy, ketma-ket joylashgan, etli, naysimon. To'pgullari oddiy, soyabonsimon. Gulqo'rg'oni oddiy, 102 gultojibargsimon, gultojibarglar soni 6 ta, asosiy qismlari qo'shilgan. Changchilari 6 ta, urug'chisi 1 ta, 3 ta mevakbargchani qo'shilishidan hosil bo'lgan. Tugunchasi ustki. Mevasi ko'sakcha. Ahamiyati: Bu oila vakillari sabzavot o'simligi sifatida ko'plab ekib o'stirilib, ovqatga ishlatiladi va dorivor o'simlik sifatida keng foydalaniladi[1].

Turning vakillari qizil, oq yoki binafsha rangli qobiqlar bilan qoplangan katta yassi-sferik soyabonlarga ega. Barglari chiziqsimon yoki kamarsimon, asosli, fistulasimon, poyasi qalin, balandligi 1 m gacha, shishgan. Gullari mayda, ko'zga tashlanmaydigan, uzun poyalarda joylashgan, soyabonli to'pgullarda to'plangan, yoshligida g'ilof bilan o'ralgan, ba'zi turlarida diametri 40 sm ga yetadi. Iyun-avgust oylarida gullaydi. Urug'lar burchakli yoki yumaloq. Avgust-sentyabr oylarida mevalari

pishadi [2]. Ushbu oilaga mansub bo'lgan shifobaxsh o'simliklardan biri *Allium suvorowii* Regel. bo'lib, xalq tabobatida qo'llanib kelinmoqda.

Allium suvorowii Regel. - Amaryllidaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Bir joyda o'simlik dekorativ xususiyatlarini yo'qotmasdan 5-7 yilgacha o'sishi mumkin. Anzur piyozi barglari keng, yasssi, uzun, yashil yoki och-yashil tusda. Piyozi yirik, dumaloq bo'lib, diametrik 6 sm gacha, oq yoki sarg'ish sersuv po'stiga ega.

Anzur piyozining ekilgandan keyingi ilk yillardagi piyozining o'sish xususiyati sust kechadi. So'nggi 3-4 yillarda o'lchami 4-5 sm gacha yetadi va ushbu davrda uzayib, ajralib chiqib, yanada yirik piyozlarni shakllantiradi. O'simlik piyoz va urug'larga ajralib ko'payadi. Anzur piyozi soyaga va qurg'oqchilikka chidamli. Ilk bahorda unib, vegetatsiya davrini tez tugatadi.

Anzur piyozning mayda bir yillik va ikki yillik piyozlari tabiiy holda o'sib chiqadi. Dastlabki piyozlari yoki ajralib chiqqan 3-5 yillik o'simlik bo'lakchalari diametrik 1-4 sm ga yetadi. Ularni qishdan oldin kuzgi sarimsoq piyozi bilan bir paytda sentyabr oyining so'nggi haftasi yoki oktyabr oyining boshida ekiladi. Piyozlarining kattaligiga qarab har 20-25 sm oraliqda, yer ustki qismidan to piyozning uchki qismigacha 8-10 sm chuqurlikda ekiladi. Anzur piyozi yorug'likka talabchan bo'lib, haddan ortiq namlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilk kurtaklari erta bahorda paydo bo'lib, ba'zida qor ostidan unib chiqadi. May oyi o'rtalariga kelib esa o'zining maksimal o'lchamlariga yetadi[3].

Anzur piyozi tabobatda foydalaniladigan o'simlik, lekin uni faqat ma'lum bir vaqt ichida iste'mol qilish mumkin. Anzur piyozining o'sishi erta bahorda, qor hali to'liq erimagan paytda boshlanadi. Aynan shu vaqtda o'simlikning vitaminli ko'katlari qadrlanadi, yosh barglar o'zlarining shiraliligi va nozik tuzilishi bilan ajralib turadi. Ammo Anzur piyozni tarkibidagi foydali tarkibiy qismlarning ko'pligiga qaramay, homligicha iste'mol qilib bo'lmaydi. Uni pishirishdan keyin yeyish mumkin. Pishirilgan piyozi asal, sut bilan birga shamollash va oshqozon kasalliklarida foydali bo'ladi. O'simlik piyozi boy kimyoviy tarkibga ega. O'simlikning barglari va yer osti qismi vitaminlar, mineral komponentlar majmuasini o'z ichiga oladi, shuningdek, efir moylari, shakar, alkaloidlar, saponitlar, askorbin kislotasi, vitamin A, D, C larni o'z ichiga oladi[4]. O'simlikning foydali xususiyatlari ko'p bo'lib, u immunitet tizimini mustahkamlaydi. Tananing infeksiyalar va bakteriyalarga chidamliligini oshiradi va qondagi shakar darajasini pasaytiradi. O'simlikning gullari gipovitaminoz kasalligini oldini olish uchun qo'llaniladi.

Suvorov piyozi ko'plab bog'bonlar tomonidan yetishtiriladigan erta gullaydigan o'simlik hisoblanadi. Bu yovvoyi o'simlik Oltoyda va Osiyoning tog'li hududlarida joylashgan. Ammo Suvorov piyozining har qanday iqlim sharoitiga osongina moslashish qobiliyati uni mamlakatning turli mintaqalarida yetishtirishga imkon beradi. O'simlik lolalar va za'faron bilan birga erta gullash, shuningdek, inson salomatligi uchun foydali xususiyatlar uchun qadrlanadi[5].

Ammo o'simlikni piyozini ehtiyotkorlik bilan ishlatishingiz kerak, chunki u allergiyaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tabobatda tananing reaksiyasiga e'tibor berib, oz miqdorda Anzur piyozini ratsionga kiritishni boshlashadi. Demak, ushbu piyoz turidan ko'plab kasalliklarga shifo topish mumkin ekan.

Shuning uchun ushbu Allium suvorowii Regel.o'simligini kimyoviy tarkibini o'rganishni maqsad qildik. Hozirda adabiyotlar tahlili olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Tog'ayev "Yuksak o'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar". "Namangan" 2015.
2. Почему мы плачем, когда режем лук? Архивная копияот 20 сентября 2017 на Wayback Machine, Статья в научно-популярном журнале «Химия и жизнь -XXI век» № 2, 2015 г. Викторова Л.
3. O'. Ahmedov, A.Ergashev,A.Abzalov , M.Yo'lchiyev, S. Azibmoyev. Dorivoro'simliklarniyetishtirishtexnologiyasi. Toshkent "NIF MISH"-2020.
4. H.S.Yo'ldoshov O'simlik mahsuldorligini yetishtirish texnologiyasi. Toshkent "ILM ZIYO"-2013.
5. <https://agro-olam.uz/>